

ERGASH G'OZIYEV ILMIY MEROSINING O'ZBEKISTON PSIXOLOGIYA FANI
TARQIYOTIDAGI O'RNI.

Egamberdiyeva Dिल्фуза Abduazim qizi

GulDU magistri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14631325>

Anontatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston psixologiya fani rivojlanishiga Ergash G'oziyevning qo'shgan hissasi beqiyos ekanligi, uning ta'lim jarayonida o'quvchilarning tafakkurini o'sishi, o'quv faoliyatini boshqarish, tafakkur, xotira, shaxs psixologiyasi masalalari, bilish nazariyasini psixologik muammolari, komil insonni tarbiyalashning psixologik asoslari kabi masalalarga e'tibor qaratganini ta'kidlab o'tish joiz.

Kalit so'zlar: Psixologiya, ontogenez, individ, yosh davrlari, shaxs, ruhiyat, psixika va b.

РОЛЬ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ ЭРГАША ГАЗИЕВА В РАЗВИТИИ
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ НАУКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.

Аннотация. В данной статье бесподобен вклад Эргаша Газиева в развитие психологии Узбекистана, рост мышления учащихся в учебном процессе, управление учебной деятельностью, мышление, память, психология личности, а также психологические проблемы теории познания. Следует отметить, что он уделял внимание таким вопросам, как психологические основы воспитания совершенного человека.

Ключевые слова: Психология, онтогенез, личность, возрастные периоды, личность, психика, психика и др.

THE ROLE OF ERGASH G'OZIYEV'S SCIENTIFIC HERITAGE IN THE
DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGICAL SCIENCE IN UZBEKISTAN.

Abstract. In this article, the contribution of Ergash Ghoziyev to the development of the psychology of Uzbekistan is incomparable, the growth of students' thinking in the educational process, the management of educational activities, thinking, memory, personality psychology, and the psychological problems of the theory of knowledge, it should be noted that he paid attention to such issues as the psychological foundations of raising a perfect person.

Key words: Psychology, ontogenesis, individual, age periods, personality, psyche, psyche, etc.

Ergash G'oziyevich G'oziyev – olim, O'zbekistonda psixologiya fani va psixologik ta'lim tashkilotchisi, nazariy, eksperimental va amaliy psixologiya sohasida fundamental va amaliy ishlanmalar yaratishga salmoqli hissa qo'shgan pedagog.

Mubolag'asiz aytish mumkinki, nafaqat mamlakatimizning psixologik, balki ilmiy jamoatchiligida E.G'.G'oziyevni shaxsan yoki kitoblari, darsliklari va ilmiy nashrlari orqali tanimaydigan odamni topish qiyin. E.G'.G'oziyev bilan shaxsiy yoki kasbiy muloqot qilish, uning psixologiya fani va amaliyotining rivojlanishini tushunish ko'lami qanchalik chuqur ekanligini ko'rish imkonini berardi.

G'oziyevning ilmiy ishlariga yuzlansak, uning erishgan yutuqlarini masalan talim jarayonida o'quvchilarning tafakkurini o'sishi, o'quv faoliyatini boshqarish, tafakkur, xotira, shaxs psixologiyasi masalalari, bilish nazariyasini psixologik muammolari, komil insonni tarbiyalashning psixologik asoslari kabi masalalarga e'tibor qaratganini ta'kidlab o'tish joiz.

Mavzuyimizga qaytar ekanmiz shaxs o'zi kim degan savol tug'iladi. Shaxs bu o'z ajdodlari takrorlagan tarixiy va sifatiy o'zgarish yo'lini bosib o'tayotgan vaqtda psixologik va jismoniy rivojlanishni har hil ko'rsatkichlarini namoyon etadigan individni biz shaxs deb ataymiz. Shaxs bu ijtimoiy jamiyatning mahsuli sanaladi. G'oziyevning fikriga ko'ra katta yoshdagi ruhiy sog'lom odam ham, chaqaloq ham nutqi yo'q oddiy ma'lumotni o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham barchasi individ hisoblanadi. Biroq bularning barchasiga shaxs deb qarash an'anaga aylanib qolgan, chunki o'sha zotgina ijtimoiy mavjudot, ijtimoiy munosabatlar mahsuli, ijtimoiy taraqqiyotning faol qatnashchisi deb hisoblanadi. Individ sifatida yorug' dunyoga kelgan odam keyinchalik ijtimoiy muhit ta'sirida shaxsga aylandi. Ergash G'oziyev shaxsni bolalik chog'laridanoq individ sifatida muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimiga tortilishini, bunday munosabatlar tarzi tarixiy shakllangan bo'lib, u yoshligidanoq shu tayyor munosabatlar, muomala, muloqot tizimi bilan tanisha borishini ta'kidlagan, Shuningdek o'zining "Umumiy psixologiya" asarida chet el psixologiyasida, sobiq savet psixologiyasida Shaxs tushunchasini, uning nazariyalarini ilgari surgan, kashfiyotlar qilgan olimlar haqida ularning nazariyalarining qisqacha tahlilini yoritib beradi. Bundan tashqari u endopsixika va ekzopsixikaga alohida urg'u berib ketadi. Mavzuyimizni asosidagi "rivojlanish" so'zi bu oddiy darajadan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlarni o'zgarib yoki yo'qolib o'rniga yangilarini paydo bo'lishiga aytiladi. Hamma narsa rivojlanishga intilgani singari, shaxs ham rivojlanishga, o'sishga intiladi. Uning rivojlanishini tushuntirish uchun davrlarga ajratiladi. Shaxning rivojlanishini yosh davrlarda deyarli barcha olimlar ifodalagan ularning asosiy birlashtirib turadigan ma'lumotlaridan olingan statistik tahlilga ko'ra quyidagi davrlarni eng to'g'risi deb belgilangan. Ular:

1. Go'daklik davri, 1 oylikdan bir yoshgacha;
2. Bog'chagacha bo'lgan yosh davri. 1 yoshdan 3 yoshgacha.

3. Maktabgacha talim davri. 3 yoshdan 7 yoshgacha.

4. kichik maktab yoshidagi o'quvchilar 7. 11. 12 yoshgacha.

5. O'rta dava o'quvchilari. 14. 15 yosh davrlari,

6. Katta yoshdagi davor. o'spirinlar davri 16. 17 yosh. Eng so'nggi davr o'spirinlik davrida jinsiy yetilish, mustaqillik davri boshlanadi. Bu yoshda yoshlar o'z fikrlarini mustaqil ifodalashga kirishadilar va shaxslik hislatlarini ifodaklashga harakatqiladilar. Aynan shu davrgacha rivojlanayotgan shaxs hayotida qo'llaydigan ko'plab odat va xarakterlarini o'zlashtirib olgan bo'ladi. Ushbu ma'lumotlarning barchasini G'oziyev asarlarida keng yoritib berdi.

Shaxsning rivojlanishi bevosita Ontogenez bilan bog'liq hisoblanadi. Psixika ontogenezi insonning tug'ilganidan to umrining yakunigacha davom etadigan uzluksiz rivojlanish sanaladi. Insonning psixikasini rivojlantiruvchi ikkita omil mavjud birinchisi biologik, ikkinchisi sotsial omillar. Bu omillar individning shaxs bo'lib shakllanishida muhim ro'l o'ynaydi. Jamiyat va muhit bo'lmasa individ hech qachon shaxs bo'lib shakllana olmaydi. Inson jamiyatning mahsuli o'laroq boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishadi, axborot almashadi, munosabatlar o'rnatadi. Agar ijtimoiy muhit bo'lmasa individ o'zgarmasdan qoladi, agarda individ shaxs bo'lib rivojlangan bo'lsa, u holda o'zi o'zining individ darajasiga tushmaslikka harakat qiladi. Bu hodisalar ham nazariy ham amaliy fanda isbotini topgan.

Inson shaxs bo'lib shakllanar ekan nutqning o'rni katta ahamiyat kasb etadi. Nutq yordamida shaxs tashqi muhit bilan ma'lumot almashadi, o'z his-tuyg'ularini nutq orqali bayon qiladi.

Nutq rivojlanmagan insonlarda aqliy rivojlanishdan orqada qolish kuztiladi. Biz 2 yoki 3 yoshli chaqaloqni hozirdan shaxs deb qarasak bo'ladi agar uning nutqi shakllangan bo'lsa. Biz nega psixika ontogenezi haqida gapiryabmiz chunki individning shaxs bo'lib rivojlanishida uning psixikasi katta ro'l o'ynaydi. Ruhan sog'lom ammo jismonan imkoniyati cheklangan odam bilan ruhiy hasta insonni nisbiy qilib oladigan bo'lsak, ruhiy sog'lom inson ancha oldinda turadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, ruhiyat shaxs rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

Insonning ruhiyati shakllanadi biologik, irsiy ijtimoiy omillar asosida ammo ulardan eng muhimi, shaxs ruhiyatiga tasir qiluvchi kuch bu-muhit. Bu qanday muhit bo'lishidan qat'iy nazar, rivojlanish uchun zarur bo'lgan birlamchi omil sanaladi. Bu dunyoga kelgan individ yillar davomida qanday shaxs bo'lishini u tug'ilib o'sgan, ayni vaqtda yashayotgan muhit belgilaydi.

Shunday ekan shaxsning rivojlanishi jamiyatni rivojlanishi, o'z o'rinida jamiyatning ham shaxs rivojlanish psixologiyasida o'rni katta. Ular bir biri bilan uzviy bog'liqdir. Mavzuyimizning

so'ngida xulosa o'rinda shuni aytamizki, Shaxs rivojlanishida u yashab isteqomat qilayotgan muhit, psixologik xususiyatlar katta ahamiyat kasb etadi. Bola tug'ilganidan boshlab, shaxs bo'lib rivojlangunga qadar bo'lgan davrda unga tog'ri muhit yaratib berish, unda sog'lom psixologik tushunchalarni shakllantirish zarur. Har bir bolaning o'ziga, yoshiga mos holda psixikasini shakllantirish, turli xil yot g'oyalarga qarshi tura oladigan ruhiytni tarbiyalash bizning asosiy vazifalarimizdan biri sanaladi. Biror bir shaxs o'zi qanday tarbiyalangan va ma'naviyati qanday bo'lsa u o'z avlodlarini ham shunday muhitda tarbiya qiladi. Zero ijobiy sifatlar bilan shakllangan shaxs jamiyatni rivoji uchun, jamiyatlar esa yurtimiz ravnaqi uchun hissa qo'shadilar

Odanga chaqaloqligidan keksalik davrigacha (ontogenezda) uning ichki imkoniyati, mayli, iqtidori, iste'dodi, qobiliyati, aqlzakovati, qiziqishi, irodasi, his-tuyg'usi, diqqati va bilish (kognitiv) jarayonlarining xususiyatlariga binoan individual munosabatda bo'lish ontogenez psixologiyasining insonparvarlik g'oyalaridan biridir. Uning muhim xususiyati har bir davrdagi rivojlanishning o'ziga xos qulay (senzitiv) hoiatidan unumli foydalanishdir va faqat ana shundagina o'sishdan orqada qolishning oldini olish mumkin. Har bir ontogenez davrining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir o'tkazish insonda olz vaqtida o'zini o'zi anglashni vujudga keltiradi. Bolada o'zini o'zi anglash tuyg'usi qancha erta uyg'onsa, shaxsiy nuqtai nazar, o'z huquqini o'zi his etish o'zining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo'ladi. Xuddi shu asnoda injiqlik, o'jarlik va qaysarlik kabi illatlar tarkib topishiga ruhiy to'siq vujudga keladi. Shaxslararo munosabatlardagi qarama-qarshilik, ziddiyat, inqirozni rivojlanish qonunlariga loqayd qarashning oqibatidir. Inson psixikasidagi umidsizlik, ijtimoiy adolat uchun kurashish ruhining o'zgarishi — nazariya bilan turmush nomutanosibligining mahsulidir. Odamlarda e'tiqod, dunyoqarash, ideal, muomala, muloqot, mustaqil xulq-atvomi samarali shakllantirish ko'proq yuqoridagi omillarga bog'liqdir.

Kishidagi tashabbuskorlik hamda to'siqlarni yengishga intilishni, iroda sifatlarini aniqlash va ularga yosh (ontogenez) psixologiyasi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ruhiy turtki berish maqsadga muvofiqdir.

Ontogenez psixologiyasi — inson psixikasining rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari hamda shu taraqqiyotning bosqichlari to'g'risidagi fandir. Ontogenez psixologiyasining asosiy vazifasi shaxsning kamol topishi qonuniyatlari va turli yosh davridagi odamlarda vujudga keladigan psixik faoliyat, holat va shart-sharoitlarning o'zaro ta'siri xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir. Ontogenez psixologiyasi ana shu vazifani hal etish bilan amaliy maqsadlarni ro'yobga chiqaradi: ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishga yordam beradi, moddiy ne'matlar ishlab

chiqarishning samaradorligini oshirishga, millatlararo munosabatlarni yaxshilashga, shaxslararo muloqotni to'g'ri yo'naltirishga, jamoada ijobiy psixologik muhit yaratishga, uzoq umr ko'rish sirlarini ochishga, oilaviy munosabatlarni mustahkanlashga, ajralishlarning oldini olishga xizmat qiladi. Modomiki shunday ekan, kamolotning turli davrlarini insonning yosh va jinsiy xususiyatlarini hisobga olmay turib, yuqoridagi vazifalarni hal qilib bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda inson psixikasining rivojlanish davrlarini aniqlash, shu sohadagi ma'lumotlarni to'plash ham mazkur psixologiyaning mavzu bahsiga kiradi. Bolaning tug'ilishidan to'vayaga yetgunicha har tomonlama rivojlanishi, jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lgunicha ulg'ayishi va shaxsining tarkib topishi muammolarini, bularning psixologik mexanizmlarini aniqlash va sharhlash ontogenez psixologiyasi sohasining muhim jihatidir.

REFERENCES

1. Ergash G'oziyev-"Umumiy psixologiya" _Toshkent 2002.
2. Ergash G'oziyev-"Ontogenez psixologiyasi" _Toshkent 2010.
3. E G'oziyev. Ontogenez psixologiyasi/darslik /.Tosbkent:"NIF MSH", 2020, 288 bet